



THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF HUMANISTIC IDEAS IN THE “TEMUR CODES”

Maksudjon Eshmamatovich Boboyev

Senior Lecturer

Karshi State Technical University

Tulqin Turdiyevich Alimardonov

Professor, Renaissance Ta'lim University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, state, justice, people, Mavarannahr, Temur codes, council, tax, social, humanism, society.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article highlights Amir Temur's invaluable contribution to the social protection and employment of the population of his state. In particular, the creation of favorable conditions for entrepreneurship contributed to the flourishing of a strong centralized state. Entrepreneurs received financial assistance from the treasury. Even people living in poor housing conditions could rely on such support. A well-organized credit system functioned in accordance with the customs of the time. Every year, government officials distributed winter clothing and free food to the poor, and provided state aid to the impoverished and disabled. The elimination of begging was declared a state mission. The first pension system in Central Asia was also established during Amir Temur's reign. Moreover, payments were made based on one's services to the country.

“TEMUR TUZUKLARI”DA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Maksudjon Eshmamatovich Boboyev

Qarshi Davlat Texnika Universiteti katta o‘qituvchisi

To‘lqin Turdiyevich Alimardonov

Renessans Ta'lim Universiteti professori

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Amir Temur, Davlat, Adolat, Эл, Movarounnahr, Temur tuzuklari, Kengash, soliq, ijtimoiy, insonparvarlik, jamiyat.

Annotatsiya: Maqolada Amir Temurning oʻz davlati aholisini ijtimoiy himoya qilish va ish bilan taʼminlash sohasidagi hissasi beqiyos boʻlganligi. Xususan, tadbirkorlik uchun keng sharoitlar yaratilgani kuchli markazlashgan davlatning gullab-yashnashiga xizmat qilingani. Tadbirkorlarga gʻaznadan moliyaviy yordam koʻrsatiladi. Uylari yomon ahvolda boʻlgan odamlar ham bunga ishonishlari mumkin edi. Yaxshi tashkil etilgan kredit tizimi oʻz davrining urf-odatlariga muvofiq ishlagan. Har yili hukumat amaldorlari kambagʻallarga qishki kiyimlarni, bepul ovqatlarni tarqatishdi, shuningdek, kambagʻal va nogironlarga davlat yordamini koʻrsatdilar. Davlatning vazifasi tilanchilikni yoʻq qilish deb eʼlon qilinadi. Markaziy Osiyoda birinchi pensiya tizimi ham Amir Temur davrida shakllangan. Bundan tashqari, toʻlovlar mamlakatning xizmatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilganligi takidlanadi.

ГУМАНИСТИЧЕСКИЕ ИДЕИ В "ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ" И ИХ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Максуджон Эшмаматович Бобоев

Старший преподаватель

Каршинский государственный технический университет

Тулкин Турдиевич Алимардонов

Профессор Университета «Ренессанс Таълим»

Тошкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, государство, справедливость, народ, Мавераннахр, Темурийские уставы, совет, налоги, социальное, гуманизм, общество.

Аннотация: В статье подчеркивается неоценимый вклад Амира Темура в обеспечение социальной защиты и занятости населения своего государства. В частности, создание благоприятных условий для предпринимательства способствовало расцвету централизованного государства. Предпринимателям оказывалась финансовая помощь из казны. Даже нуждающиеся, живущие в плохих условиях, могли рассчитывать на такую поддержку. Хорошо организованная система кредитования функционировала в соответствии с обычаями своего времени. Ежегодно государственные чиновники раздавали бедным зимнюю одежду и бесплатную еду, а также оказывали помощь

бедным и инвалидам. Уничтожение нищенства было объявлено одной из задач государства. Первая пенсионная система в Центральной Азии также была заложена во времена Амира Темура. Кроме того, подчеркивается, что выплаты осуществлялись с учетом заслуг перед государством.

Kirish

O'zbekiston mustaqilligini har tomonlama mustahkamlash, uning umumbashariyat tan olgan ma'naviyatini tiklash va yangi davr talablari asosida yuksak darajaga ko'tarishni talab qiladi. Bu esa mustaqil O'zbekiston tarixining barcha davrlarini chuqur o'rganish, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Diyorimiz tarixining ana shunday davrlaridan biri – jahon tarixida munosib iz qoldirgan Amir Temur va Temuriylar davridir. Bu davrda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan buyuk ilmiy meros jahon sivilizatsiyasiga muhim xissa bo'lib qo'shilgan va ular ilgari surgan shunday insonparvarlik g'oyalari mavjudki, ularni o'rganish hamda umumlashtirish komil inson tarbiyasida yuksak ahamiyatga ega. Prezident Sh.M.Mirziyoyev bu borada shunday ta'kidlaydi: “Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini hayotimizda yanada keng aror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz. Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: — Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin! degan chuqur ma'noli so'zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur” [1]

Asosiy qism

O'rta Osiyoda qadimdan davlatni boshqarish, podshohlarning fuqarolarga munosabati shu o'lkada istiqomat qiluvchi xalqlarning urf-odati, an'analari, turmush tarzi, xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonparvarlik va adolat, axloqiy omil azaldan ustuvor hisoblangan. XIV-XV asrlarda yashagan mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida yuqorida nazarda tutilgan masalalar alohida o'rin tutgan. Bu borada ayniqsa — Temur tuzuklari asari alohida ahamiyatga egadir. Amir Temur, garchi ilm-fan sohasida alohida faoliyat olib bormagan bo'lsada, u va temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji hamda aholining ijtimoiy manfaatlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlarning yetishib chiqishiga zamin bo'ldi. Amir Temur o'z davri uchun nihoyatda katta markazlashgan davlat barpo etdi. U o'z hayotini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodligi uchun bag'ishladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go'zal hududiga aylandi. Shu bilan birga u ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olimu fuzalo va din

arboblarini to'pladi. Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloch yoydi, sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Amir Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehr shafqat ko'rsatish kabi g'oyalarni xalqqa singdirish uchun kurash olib bordi. Naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo'lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Toyobodiy, Mir Sayid Barakalar Temurning pirlari bo'lib, sohibqiron ular bilan tez-tez muloqot qilib turgan. Temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'alarini izchil ravishda davom ettirdilar.

Amir Temur davlatini idora etish va boshqarishda siyosiy tizimning asosiy qonun qoidalari to'plami – “Temur tuzuklari”ni yaratdi. Islom dini mafkurasi va ahkomlariga suyanib, u o'z “Tuzuklari” asosida el-yurtni boshqardi va mamlakatni obod etdi. “Temur tuzuklari” Amir Temurning 1342-1405 yillar oralig'idagi faoliyatini aks ettiradi va ikki qismdan iborat. Birinchi qismida asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, qo'shni (27) yurt va mamlakatlarni zabt etish masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qismida sohibqiron nomidan uning toju-taxt vorislariga aytilgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihat, turli sohalaridagi, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga oid fikr-mulohazalar kiritilgan. — Temur tuzuklarida olg'a surilgan fikrlardan biri – bu Amir Temurning jamiyatda fuqarolarni, ularning qaysi tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar ularni huquqiy va ahloqiy jihatdan teng hisoblashdir. U fuqarolarni qobiliyati, aql zakovati, davlat oldidagi xizmatlariga qarab taqdirlab, hurmatini joyiga qo'ygan, dillarini og'ritmaslik intilgan, — “Turku tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va menga nisbatan xayrixoxlik qilgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilsa, do'stligini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu-ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilsa, uning xizmat haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho'kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib muruvvat va do'stlik ko'rsatdim”, deb ta'kidlanadi — Temur tuzuklarida. Shu bilan birga jamiyatda fuqarolarga munosabatda bo'lishda, davlatni boshqarishda adolat va insofni asosiy mezon qilib oladi. Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim, deb ta'kidlaydi sohibqiron, - gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga

rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim. Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'targanlar, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, agar ular iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelsalar, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomilada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unutishar edi.

Amir Temurning fikricha, qaysi hukmdor o'z faoliyatida adolat va haqqoniyat bilan ish tutsa, o'z fuqarolariga rahm-shafqat qilsa, davlatining qudrati yanada oshadi. Agar u adolatsiz va shafqatsiz bo'lsa, unda mamlakat tezda inqirozga yuz tutib xarob bo'ladi. Amir Temur shunday deydi: "O'z qudratimni saqlash uchun men bir qo'limda adolat shamini va ikkinchi qo'limga beg'arazlik shamini tutib, har ikki sham bilan butun umr bo'yi o'z yo'limni yoritib bordim. Barcha qilmishlarimda ana shunday adolat qoidalariga amal qildim" [2]. U mamlakat qudratini ulkan chodirga o'xshatadi, chodirni ko'tarib turgan ustunlar adolat bo'lsa, uni tortib turgan arqonlar insofdir, chodirni mustahkam ushlab turgan qoziqlar esa haqiqatdir. Shunday qilib, Amir Temur turli tabaqa va qavmlar bilan ish tutishda, ulkan davlatni boshqarishda uchta narsaga – adolat, insof, va haqiqatga tayanib ish ko'radi. Amir Temur davridagi oshkoralik, demokratik fuqarolik davlati barpo etish tamoyillari yaqqol namoyon bo'lgan.

Xalqni ijtimoiy himoyalash, bozor monopoliyasidan muhofazalash maqsadida savdogarlarga olib kelgan mol-tovarlari uchun 10 foizgacha ustama narx qo'yishga ruhsat etilgan. Ana shu tariqa ichki iste'mol bozorlari eng sifatli, eng rang-barang va muhimi eng arzon mahsulotlar bilan to'lib-toshgan. Bu hodisotni bugungi islohotlarimiz davrida import qilinayotgan tovar mahsulotlar tender-tanlov asosida jalb qilinayotgani bilan qiyoslash qiyin emas. O'sha davrlarda ham davlat xazinasini asosan olingan soliq va o'lponlar hisobiga shakllangan. Lekin ijtimoiy mehnatning ba'zi turlarida mashg'ul bo'lgan xalq vakillariga imtiyozli soliqlar joriy etilgan. Masalan, kimda-kim biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yerosti inshooti) qursa, biron bog' ko'kartirsa, yoxud bironta harob bo'lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech qanday o'lpon olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan bergan mablag'lar soliq sifatida hisobga o'tavergan. Faqat faoliyatning uchinchi yilidan soliq qonun-qoidasiga muvofiq ulardan xiroj yig'ilgan. Soliqqa tortishda ana shunday imtiyozlarning yaratilishi tadbirkor va ishbilarmon fuqarolarni rag'batlantirmay qolmasdi. Bu sohada band bo'lganlar safining ko'pligi oqibatida

Amir Temur saltanati davrida masjid, madrasa, g'aribxona, yo'lovchi yoki kambag'allarga ovqat beriladigan langarxona, shifoxonalar ko'plab qurilgan. Qolaversa, bunday ijtimoiy xizmat

ko'rsatish shoxobchalarida minglab kishilar ish bilan ta'minlanib, oila tebratishgan. Mamlakat ichida sipohiy va harbiylar, olimu-fuzalo, donishmand tabib va tarixchilar alohida qadrlangan. Ularga o'z xoli va iqtidoriga yarasha vazifalar yuklatilib, suyurg'ol va maosh berilgan. Xizmatchi va farrosh (bu yerda palos to'shovchi ma'nosida)larga yuzdan ming tangagacha maosh tayinlangan. Qizig'i shundaki, davlat tomonidan beriladigan maoshlarning to'liq ma'lumotini Devonbegi va vazirlar Amir Temurga yetkazib turishgan. Alohida fidokorlik ko'rsatgan saroy xizmatchilari, lashkarboshi va askarlar uchun xazinadan maxsus maosh tayinlanganki, bu ham mehnat bilan band bo'lganlarga diqqat e'tiborning ko'rinishidir. "Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi - deyiladi, "Temur tuzuklarida", chunki bu insonlar mamlakat rivojida ustundirlar".

Shuningdek, dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdogarlarga o'z ishlarini yuritish uchun urug', asbob, sarmoya berib, sharoit yaratishga e'tibor ko'rsatgan. Bundan tashqari Amir Temur ishg'ol qilgan mamlakatlarning aholisiga yaxshi munosabatda bo'lgan, ularni umid va qo'rqinch orasida tutgan. Aholini tabaqalariga qarab maoshlar tayyorlagan. "...Buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to'plab, kundalik yemish-ichmishlar bilan ta'minlab, ularga biron ish bersinlar. Hamda barchasi tamg'alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg'adan keyin ham gadolik qilgudek bo'lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo'qoladi". Shu tariqa mamlakatda yaratuvchanlik islohot yo'li rag'batlantirib turilgan.

Bobomiz Amir Temur ana shu g'oyadan kelib chiqqan holda, yurtdagi istiqbolli ishlarni xalq manfaatiga moslab olib borganligi va bu jabhada erishilgan muvaffaqiyatlar shubxasiz uning buyuk daholigidan dalolatdir. Amir Temur adolatli, mehr-shafqatli va rahmdil bo'lishiga qaramasdan juda qattiqqo'l odam edi. U jamiyatda qonunbuzar va tartib buzar, xususan, o'g'ri, firibgarlarni, davlat va xalq mulkiga xiyonat qilganlarni, fuqarolarni aldaganlarni qattiq jazoga tortar edi. Ispan elchisi Rui Gonsalesde Klavi xoning ta'kidlashicha, — "... Podshoh bu umumxalq sayilida birovlariga yaxshilik qilib muruvvat ko'rsata olishi va boshqalarni dorga osishi ham mumkinligini namoyish etish niyatida hunarmandlar rang-barang chodirlarini tikkan joyida ko'p dorlar ham qurdirdi. Birinchi hukm butun Samarqand saltanatida boshliq hisoblangan dina, ya'ni dorug'a ustidan chiqarildi, aytishlaricha bu dorug'a yetti yil davomida o'z lavozimini suiste'mol qilgan. Podshoh uni huzuriga chaqirtirdi, butun mol-mulkini musodara qilib, o'zini shu zahoti dorga osishga buyurdi. Podshohning juda katta ishonchini qozongan, shunday yuksak mavqega ega shaxs ustidan chiqarilgan bunday hukmdan butun saltanat larzaga tushdi. Podshoh dorug'aning gunohini o'tishni so'ragan kishini ham shunday jazoga hukm qildi. Bundan tashqari, podshoh uzoq safarga jo'naganda uch ming otni ishonib topshirib ketgan,

ammo saltanat mulkini tugal saqlayolmagan yana bir nufuzli shaxsni ham osib o'ldirishga buyurdi. O'limga buyurilgan shaxsning — muddat bersalar otlarni uch ming emas, olti ming qilib qaytaraman”, - degan iltijolarini podshoh inobatga olmadi. Bundan tashqari, o'zi yo'qligida go'shtning narxini oshirib sotgan bir qancha qassoblarni ham jazolashni buyurdi. Shuningdek, mollarga oshiqcha narx qo'yib sotishda ayblangan kavushdo'z, etikdo'z va boshqa bir qancha hunarmandlarning mablag'laridan bir qismini musodara qilishni topshirdi. Shunday qilib, Amir Temur ma'naviy va ahloqiy mezonlarsiz jamiyatni boshqarib bo'lmasligini, markazlashgan davlat barpo etish va xalqni birlashtirish mumkin emasligini chuqur anglab etdi. O'zining siyosiy faoliyatida yuqoridagi qoidalarga so'zsiz amal qildi va boshqalardan ham shuni talab qildi.

Temur tuzuklari va boshqa Temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda yoritilgan odob-ahloqqa oid fikrlar, pand-nasihatlari, ibratomuz so'zlar shundan darak beradiki, Sohibqiron Temurga vatanparvarlik, sabot-matonat, yuksak iroda, tadbirkor, qat'iylik, odillik, vadaga vafodir, beg'arazlik, ilm ahllariga hurmat, mehr-shafqat, hayr-ehson, rahmdillik, islom qadriyatlariga sodiqlik, haqiqatgo'ylik, do'stlik, insof va diyonat kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar xos bo'lgan.

Amir Temur tuzuklarida belgilangan qoidalar nafaqat oliy tabaqa vakillariga, balki quyi idoralarga ham taalluqli bo'lgan. Bunda fuqaro manfaati oldingi o'ringa olib chiqilgan. El-yurt va xalq manfaatini, qolaversa, inson huquqlarini himoya etuvchi “Tuzuklar”ni tahlil etar ekanmiz, jamiyatda ta'minlangan ijtimoiy adolat tamoyillarini ko'ramiz:

1. Kasbu hunar va ma'rifat ahllariga saltanat korxonalaridan yumush berilsin.
2. Bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar.
3. Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin.
4. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asboblari tayyorlab berilsin.
5. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib berib, unga yordam berilsin.[3]

Amir Temurning o'z davlati aholisini ijtimoiy himoya qilish va ish bilan ta'minlash sohasidagi hissiy beqiyosdir. Xususan, tadbirkorlik uchun keng sharoitlar yaratilgani kuchli markazlashgan davlatning gullab-yashnashiga xizmat qiladi. Tadbirkorlarga g'aznadan moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Uylari yomon ahvolda bo'lgan odamlar ham bunga ishonishlari mumkin edi. Yaxshi tashkil etilgan kredit tizimi o'z davrining urf-odatlariga muvofiq ishlagan. Har yili hukumat amaldorlari kambag'allarga qishki kiyimlarni, bepul ovqatlarni tarqatishdi, shuningdek, kambag'al va nogironlarga davlat yordamini ko'rsatdilar. Davlatning vazifasi

tilanchilikni yo‘q qilish deb e‘lon qilinadi. Markaziy Osiyoda birinchi pensiya tizimi ham Amir Temur davrida shakllangan. Bundan tashqari, to‘lovlar mamlakatning xizmatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetarkan, uni ulufadan mahrum etmaslik va martabasidan to‘shirmaslik kerak. Hech bir sipohiyni xizmati nazardan chetda qolmasin, chunki ular davlat xizmatida bo‘lib, boqiy hayotlarini foniy dunyo naqdi uchun ayamaganliklarining o‘zigagina ham in‘omga va moddiy ta‘minotda bo‘lishga haqli va loyiqdirlar. Uni in‘omidan mahrum qilib, xizmatlarini ko‘rsatmasalar, noinsoflik qilgan bo‘lurlar[4].

Amir Temur siyosatida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari oddiy aholiga iqtisodiy imtiyozlar berish, shu orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish va mustahkamlashga hissa qo‘shish, shuningdek, davlat tuzilmasiga yuqori darajada sodiqlik va ishonchni saqlashga qaratilgan edi. Aynan shu lahzalar aholining hokimiyatga sodiqligiga asoslangan kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratish, davlat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlashda asosiy o‘rinni egalladi.

“Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko‘rdim”[5]

Ijtimoiy adolat tartibida belgilangan Amir Temurning soliq tizimi mamlakatni nafaqat iqtisodiy hayotigagina emas, balki, siyosiy barqarorligiga ham ijobiy ta‘sir qilishini chuqur anglagan. U qonunda ko‘zda tutilmagan soliqlarni undirish, qo‘shimcha soliq “ijod qilish”ga, bu sohada amaldorlarning o‘zboshimchaligiga zinhor yo‘l qo‘ymagan. Qonunsiz va adolatsiz soliqlar xalqning noroziligini kuchaytirib qolmay, aholining qashshoqlashuviga va iqtisodiy inqirozga olib kelishini yaxshi bilgan. Shuning uchun Amir Temur keyinchalik shariat tavsiya qilmagan sovari (amaldorlar uchun sovg‘a puli), qo‘nalg‘a (choparlar va elchilar uchun mehmon puli), shilon puli (podshoh va amaldorlarga qilinadigan sovg‘a)ni bekor qiladi. Bu o‘z navbatida, mamlakat aholisini ortiqcha xarajatlardan xalos qilgan. Boz ustiga Amir Temur yirik harbiy yurishlardan g‘alaba bilan qaytib kelganda poytaxt Samarqand aholisi, ba‘zida Movarounnahr xalqi ham soliqlardan ozod qilingan. Sohibqiron soliq undiruvchilar xalq yelkasiga yuk bo‘lmasligi uchun ularga maosh tayinlagan.[6]

Tadqiqotchi O. Olimjonov soliq to‘lovchi xalq va soliq yig‘uvchi davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar o‘ta nozik ekanligi, soliqning miqdori mo‘tadil bo‘lishi zarurligi, bu qoidaga rioya qilmaslik o‘ta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ta‘kidlaydi. O‘sha davrlardagi Yevropa hukmdorlari aksariyatining davlatchilik faoliyatida bunday qoidalar ma‘lum emasdi! Aniqroq aytganda, jahon davlatlarining ko‘pchiligida hali “soliq siyosati” degan tushunchaning o‘zi yo‘q edi [7].

Amir Temur bobomizning insonparvar davlat asoslarini yaratish borasidagi ijtimoiy adolat tamoyillari xalqning tub manfaatlarining ifodasi bilan chambarchas bog‘langanligiga iqrор bo‘lamiz. Adolatning birinchi asosi – aholining turli tabaqalarining manfaatları uyg‘un bo‘lishini ta‘minlash. Ikkinchi asosi – aholining haq-huquqini teng ta‘minlagan holda kishilarni xizmatga tayyorlashda shaxsning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish. Adolatning uchinchi asosi – barchaning teng farovonlikka erishishini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmatiga qarab har bir inson o‘z ulushini olishga imkon yaratishdan iborat [8].

Xulosa

Bugungi kunda jahon davlatlari soliq tizimining nazariy asosiga aylangan ushbu tamoyillar aslida Amir Temur ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xulosa qilish mumkinki, axloqiy qadriyatlarga asoslangan davlat boshqaruvida ba‘zan adolatga tayangan munosabatlarni shakllantirish vositalarini kashf qilish yoxud jamiyatda tenglikni ta‘minlovchi uslublarni yaratishga ha deganda erishaverilmaydi. Bunga xalqni sevishdek kuchli tuyg‘u kerak. Mazkur boy merosimizni o‘rganish va tajribalarini kuzatish natijasida, agar siyosiy boshqaruv inson manfaatlariga suyansa, u, albatta ezgulikka olib kelishi muqarrar ekanligiga amin bo‘lamiz.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 14.12.2016. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-lavozimiga-kirishish-tan-14-12-2016>
2. X.Aliqulov va boshqalar. Ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. Andijon. 2003. –B. 77.
3. Темур тузуклари. – Т.: «Шарқ». 2005. –Б. 89.
4. Valiyev A., Xamrayev A. O‘TMISHGA NAZAR | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. LOOK TO THE PAST. № SI-2.2021. –B. 47.
5. “Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов .Т.: Янги китоб, 2020. –Б. 82, 167.
6. “Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов .Т.: Янги китоб, 2020. –Б. 109.
7. Valiyev A., Xamrayev A. O‘TMISHGA NAZAR | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. LOOK TO THE PAST. №SI-2.2021. –B. 48.
8. Болтаев Ш. Амир Темур давлатининг солиқ сиёсати. – Т.: «Фан» нашриёти, 2006. –Б. 174.